AMALIY SAN'ATDA MAVZU ASOSIDA DASTLABKI BADIIY IZLANISHLAR VA KOMPOZITSION G'OYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i04.006

Aytjanova Umida Sarsenbay qizi
umidaytjanova04@gmail.com
Ilmiy rahbar: Xasanov Xolboy Xasanovich
xasanov@tersu.uz
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada amaliy san'atda mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlar olib borish hamda kompozitsion g'oyani shakllantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotning dolzarbligi amaliy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning kompozitsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda mustaqil badiiy yechim topish kompetensiyalarini takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, ijodiy topshiriqlarni tahlil qilish hamda kompozitsion izlanishlar metodlaridan foydalanildi. Natijada mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlarni tashkil etish orqali talabalarda kompozitsion tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari amaliy san'at mashg'ulotlarida ijodiy jarayonni samarali tashkil etish hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, kompozitsion g'oya, badiiy izlanish, ijodiy tafakkur, kompozitsiya, eskiz ishlash, obrazli yechim, loyihaviy faoliyat, dekorativ san'at metodikasi

METHODOLOGY OF THEME-BASED INITIAL ARTISTIC RESEARCH AND COMPOSITION IDEA FORMATION IN APPLIED ART

Aytjanova Umida Sarsenbay qizi
umidaytjanova04@gmail.com
Scientific supervisor: Xasanov Xolboy Xasanovovich
xanov@tersu.uz
Termez State University

Abstract: This article covers the theoretical and methodological foundations of conducting preliminary artistic research on the basis of the topic and forming a

(cc) BY

compositional idea in applied arts. The relevance of the research is determined by the need to develop the creative thinking of students studying in the field of applied arts, to form their ability to think in a compositional way, and to improve their competences in finding an independent artistic solution. In the research process, the methods of pedagogical observation, comparative analysis, analysis of creative tasks, and compositional research were used. As a result, effective methods for developing compositional thinking in students through organizing preliminary artistic research on the basis of the topic were identified. The results of the research are of great importance for the effective organization of the creative process in applied arts classes and the development of students' professional competencies.

Keywords: applied arts, compositional idea, artistic research, creative thinking, composition, sketching, figurative solution, project activity, decorative art methodology

Hozirgi davrda tasviriy va amaliy san'at ta'limi tizimida bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularning mustaqil kompozitsion fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda badiiy loyihalash faoliyatini takomillashtirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa amaliy san'at mashg‘ulotlarida mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlar olib borish jarayoni talabalarning obrazli tafakkuri, estetik didi va kompozitsion qarashlarini shakllantirishda muhim metodik bosqich sifatida namoyon bo‘ladi. “Tasviriy san'at mashg‘ulotlarida kompozitsiya yaratish jarayoni odatda dastlabki eskiz ishlash bosqichidan boshlanadi va aynan shu bosqich talabada kompozitsion fikrlashni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi” [1, 47]. Amaliy san'at mashg‘ulotlarida mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlar olib borish jarayoni talabalarning obrazli tafakkuri, estetik didi va kompozitsion qarashlarini shakllantirishda muhim metodik bosqich hisoblanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida eskizlar ustida ishlash orqali talabalar badiiy g‘oyani izchil rivojlantirish ko‘nikmalarini egallaydilar. Chunki har qanday badiiy asarning muvaffaqiyatli yaratilishi avvalo g‘oyaning shakllanishi va uni izchil kompozitsion yechimga aylantirish jarayoniga bevosita bog‘liqdir.

Amaliy san'at yo‘nalishida kompozitsion g‘oyani shakllantirish talabalardan nafaqat tasviriy vositalarni bilishni, balki mavzuni chuqur anglash, uni badiiy obraz darajasiga ko‘tarish hamda dekorativ ifoda imkoniyatlarini to‘g‘ri qo‘llay olishni talab etadi. “Tasviriy san'atni o‘qitish jarayonida mavzuni tahlil qilish va unga mos badiiy yechim topish talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishning asosiy metodik shartlaridan biri hisoblanadi” [2, 52]. Kompozitsion g‘oya shakllanishi jarayonida shakl, ritm, muvozanat va kompozitsion markazning o‘zaro uyg‘unligi badiiy asarning mazmuniy ifodaviyligini ta'minlaydi hamda tasviriy elementlar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda,

(cc) BY

dastlabki badiiy izlanishlar jarayoni talabalarning ijodiy faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish hamda turli kompozitsion variantlar ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon orqali talaba mavzuni tahlil qiladi, asosiy g‘oyani aniqlaydi, shakl va rang uyg‘unligini izlaydi hamda badiiy ifoda vositalarini tanlash orqali yakuniy kompozitsion yechimga yaqinlashadi.

Zamonaviy san’at ta’limida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy faoliyatini tashkil etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa amaliy san’at mashg‘ulotlarida mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlarni tizimli tashkil etish, kompozitsion g‘oyani bosqichma-bosqich shakllantirish hamda talabalarning individual ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki kompozitsion fikrlashning shakllanishi talabalarning nafaqat badiiy saviyasini oshiradi, balki ularning kasbiy tayyorgarligi va mustaqil ijodiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham mustahkamlaydi.

Amaliy san’at asarlarini yaratish jarayonida dastlabki badiiy izlanishlar kompozitsion g‘oyaning shakllanishida tayanch bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda talaba mavzuga mos tasviriy elementlarni tanlaydi, ularning o‘zaro joylashuvi va nisbatlarini aniqlaydi, dekorativ umumlashtirish usullaridan foydalanadi hamda turli eskiz variantlari orqali eng maqbul badiiy yechimni izlaydi. Natijada kompozitsion g‘oya asta-sekin aniqlashib boradi va yakuniy badiiy ishlanmaning konseptual asosini tashkil etadi.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida amaliy san’at mashg‘ulotlarini tashkil etish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab hollarda talabalarning kompozitsion g‘oya ustida ishlash jarayoni yetarli darajada metodik asosda yo‘lga qo‘yilmagan. Dastlabki badiiy izlanishlar ko‘pincha tizimsiz olib boriladi yoki faqat texnik mashq darajasida tashkil etiladi. Bu esa talabalarning mavzuni chuqur tahlil qilish, obrazli tafakkur asosida kompozitsion yechim topish hamda mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Mazkur holat amaliy san’at ta’limi jarayonida mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlarni tashkil etish hamda kompozitsion g‘oyani shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot amaliy san’at mashg‘ulotlarida talabalarning ijodiy faoliyatini samarali tashkil etish, kompozitsion tafakkurini rivojlantirish hamda badiiy izlanishlar orqali g‘oya shakllanish jarayonini takomillashtirish masalalarini yoritishga qaratilgan.

Amaliy san’atda mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlar va kompozitsion g‘oyani shakllantirish masalasi tasviriy san’at pedagogikasi, kompozitsiya nazariyasi hamda badiiy tafakkurni rivojlantirish yo‘nalishida olib borilgan qator ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar talabalarda kompozitsion fikrlashni shakllantirish, obraz yaratish jarayonini tashkil

(cc) BY

etish hamda badiiy g‘oyani izchil rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, kompozitsiya qonuniyatlari va badiiy obraz yaratishning nazariy asoslari The Art of Composition asarida batafsil yoritilgan bo‘lib, unda kompozitsion markazni aniqlash, shakllar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash hamda tasviriy vositalar orqali g‘oyaviy mazmunni ifodalash usullari ilmiy asosda izohlangan. Muallif kompozitsion fikrlashning shakllanishi dastlabki badiiy izlanishlar jarayonida amalga oshishini alohida ta’kidlaydi.

Tasviriy faoliyat jarayonida ijodiy tafakkurning rivojlanish masalalari Creative and Mental Growth asarida Viktor Lowenfeld tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, unda talabalarning badiiy izlanishlari obrazli tafakkur, estetik idrok va mustaqil kompozitsion qaror qabul qilish jarayoni bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Ushbu qarashlar amaliy san’at mashg‘ulotlarida dastlabki eskizlar ustida ishlashning pedagogik ahamiyatini ochib beradi.

San’at ta’limi orqali tafakkur jarayonlarini rivojlantirish masalalari The Arts and the Creation of Mind asarida Elliot W. Eisner tomonidan keng tahlil qilingan. Muallif san’at asosida olib boriladigan badiiy izlanishlar talabalarda muammoli vaziyatlarni ijodiy hal etish, obrazli fikrlash hamda kompozitsion g‘oyani mustaqil shakllantirish imkoniyatlarini rivojlantirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tasviriy san’atni idrok etish va kompozitsion tafakkurning psixologik asoslari Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye asarida Rudolf Arnheim tomonidan yoritilgan bo‘lib, unda vizual tafakkur shakllanishi jarayonida tasviriy elementlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash hamda obrazni umumlashtirishning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Bu esa kompozitsion g‘oyani shakllantirishda dastlabki badiiy izlanishlarning muhimligini tasdiqlaydi.

Respublikamiz olimlari tomonidan ham amaliy san’at va kompozitsiya mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, X. Komilovaning “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi” asarida talabalarning kompozitsion fikrlashini shakllantirish bosqichlari hamda eskiz ishlash jarayonining didaktik ahamiyati yoritilgan. N. Abdullayevning “Tasviriy san’at tarixi” asarida esa milliy amaliy san’at namunalarining kompozitsion tuzilishi va badiiy bezak tizimi haqida muhim nazariy ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, A. Qosimovning “Rangtasvir asoslari va uni o‘qitish metodikasi” asarida rang, shakl va dekorativ yechimlarning kompozitsion g‘oya shakllanishidagi o‘rni metodik jihatdan asoslab berilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, amaliy san’atda kompozitsion g‘oyani shakllantirish jarayoni ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lsa-da, aynan mavzu asosida olib boriladigan dastlabki badiiy izlanishlarning talabalarning kompozitsion tafakkurini rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlarini tizimli o‘rganish

(cc) BY

masalasi yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur yo‘nalishda ilmiy-metodik tadqiqot olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida amaliy san’at mashg‘ulotlarida mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlarni tashkil etish hamda kompozitsion g‘oyani shakllantirishning samaradorligini aniqlash maqsadida talabalarning ijodiy ishlari bosqichma-bosqich tahlil qilindi. Tahlil ishlari dekorativ kompozitsiya yaratish jarayonida milliy amaliy san’at namunalariga xos o‘simliksimon ornament motivlari asosida olib borildi. Ushbu jarayonda talabalarning mavzuni anglash darajasi, eskiz variantlari ustida ishlash faoliyati hamda yakuniy kompozitsion yechimni tanlash mezonlari o‘rganildi.

Dastlabki bosqichda talabalarga berilgan mavzu asosida vizual materiallarni yig‘ish va tahlil qilish topshirig‘i berildi. Talabalar tomonidan milliy naqsh elementlari, simmetriya tamoyillari, ritm va takrorlanish qonuniyatlari o‘rganilib, ular asosida bir necha variantdagi dastlabki eskizlar ishlab chiqildi. Mazkur jarayon talabalarning kuzatuvchanligini oshirish, shaklni umumlashtirish hamda dekorativ tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilgani aniqlandi.

Keyingi bosqichda eskiz variantlarini kompozitsion jihatdan taqqoslash asosida eng maqbul badiiy yechimni aniqlash ishlari olib borildi. Talabalar tomonidan kompozitsion markazni aniqlash, elementlar o‘rtasidagi nisbatni saqlash hamda ritmik uyg‘unlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. “Tasviriy san’at asarlarini yaratish jarayonida kompozitsiya qonunlari, perspektiva, yorug‘-soya va rang munosabatlarini to‘g‘ri qo‘llash badiiy g‘oyaning mazmunli ifodalanishini ta’minlaydi” [3, 26]. Ushbu faoliyat natijasida talabalarda kompozitsion fikrlashning izchilligi shakllanib borishi kuzatildi.

Shuningdek, rang tanlash jarayonida dekorativ ifoda imkoniyatlarini hisobga olgan holda rang uyg‘unligini yaratish ustida amaliy izlanishlar olib borildi. Talabalar issiq va sovuq ranglar kontrasti, lokal rang yechimlari hamda milliy rang an’analaridan foydalanish orqali kompozitsiyaning ifodaviyligini oshirishga erishdilar. Bu esa ularning rang orqali badiiy g‘oyani ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalarning kompozitsion g‘oya ustida ishlash jarayoni kuzatilganda, dastlabki badiiy izlanishlar asosida yaratilgan variantli eskizlar yakuniy badiiy yechimning sifatini sezilarli darajada oshirgani aniqlandi. Ayniqsa, mavzuni tahlil qilish, asosiy obrazni tanlash va dekorativ elementlarni umumlashtirish bosqichlarida talabalar mustaqil qaror qabul qilishga faol jalb etildi. Natijada ularning ijodiy tafakkuri va obrazli tasavvur qilish qobiliyatlari rivojlangani kuzatildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaliy san’at mashg‘ulotlarida dastlabki badiiy izlanishlar jarayonini tizimli tashkil etish talabalarning kompozitsion g‘oya yaratish jarayonini sezilarli darajada faollashtiradi. Xususan, eskizlar ustida variantli ishlash, dekorativ umumlashtirish usullaridan foydalanish hamda milliy badiiy an’analarni

(cc) BY

kompozitsiyaga tatbiq etish orqali talabalarda kompozitsion tafakkur, estetik did va ijodiy mustaqillikning rivojlanishi ta’minlandi. Bu esa amaliy san’at ta’limi jarayonida mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlarni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaliy san’at mashg‘ulotlarida mavzu asosida dastlabki badiiy izlanishlarni tizimli tashkil etish talabalarda kompozitsion g‘oyani shakllantirish jarayonining samaradorligini oshiradi. Dastlabki eskizlar ustida variantli ishlash, shakl va rang uyg‘unligini izlash hamda dekorativ umumlashtirish usullaridan foydalanish talabalarning ijodiy tafakkuri, estetik didi va kompozitsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi aniqlandi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida pedagogik tasvirlar va badiiy tahlil metodlaridan foydalanish talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi [4, 63]. Shu bilan birga, badiiy izlanishlar jarayoni talabalarning mustaqil qaror qabul qilish hamda mavzuni obrazli ifodalash kompetensiyalarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliy san’at ta’limi jarayonini takomillashtirish maqsadida mashg‘ulotlarda mavzu asosida bosqichma-bosqich eskiz ishlash metodikasini keng joriy etish, milliy amaliy san’at namunalari asosida kompozitsion tahlil mashqlarini tashkil etish hamda talabalarning individual ijodiy izlanishlarini rag‘batlantiruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, kompozitsion g‘oyani shakllantirish jarayonida interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirasilov S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2006.
2. Abdullayev S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. 2014
3. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san’at. Toshkent: Cho‘lpon, 2006.
4. Abdirasilov S. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. T.: «Fan ya texnologiya», 2012.
5. Arnheim R. Art and Visual Perception (expanded edition).
6. Mengnorov I. J. TASVIRIY SAN’AT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA, O ‘QUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI //Inter education & global study. - 2024. - №. 4. - С. 382-391.
7. Jumanazarovich M. I. Rangtasvir Mashg‘ulotlarida Qalamtasvirning Ahamiyati. - 2023.

(cc) BY